



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 04 | pp. 1-7 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MEHNAT VA UNGA HAQ TO'LASH BO'YICHA OPERATSIYALAR SUD-BUXGALTERIYA ESKPERTIZASI TADQIQOTINING TASHKILIY-USLUBIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH



Umarov Muhammadbilol Baxtiyorjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Xasanov Baxodir Akramovich

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada mehnat va unga haq to'lash bo'yicha operatsiyalarni sud-buxgalteriya ekspertizasi doirasida o'rganishning tashkiliy va uslubiy jihatlari tahlil qilinadi. Sud amaliyotida uchrayotgan buxgalteriya-huquqiy nizolarni hal etishda ekspertiza jarayonining aniqligini oshirish, zamonaviy audit metodlarini joriy qilish va ekspert xulosalarining huquqiy asoslarini mustahkamlashga doir takliflar ilgari suriladi. Tahlillar statistik ma'lumotlar, amaliy misollar va xorijiy tajribalar asosida olib borilib, sohani takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sud-buxgalteriya ekspertizasi, mehnatga haq to'lash, buxgalteriya hisobi, audit, huquqiy nizolar, ekspertiza metodikasi, ish haqi, tashkiliy-uslubiy ta'minot.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat munosabatlarining iqtisodiy va huquqiy jihatdan murakkablashib borishi sud amaliyotida buxgalteriya ekspertizasining o'rnini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, mehnatga haq to'lash bilan bog'liq nizolar soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi sudlarida ko'rilgan iqtisodiy nizolarning 11,8 foizi aynan ish haqi va mehnat shartnomasining bajarilmasligi bilan bog'liq bo'lgan (O'zbekiston Oliy sud ma'lumotlari, 2024).

Ushbu muammolarni hal etishda sud-buxgalteriya ekspertizasi vositasida moliyaviy hujjatlarni aniqlik bilan tahlil qilish, ish haqi hisob-

kitoblaridagi xatoliklarni aniqlash va mehnat shartnomasining moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha ob'ektiv xulosa berish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq hozirgi amaliyotda ekspertiza metodikasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan, natijada sud qarorlarining asoslanganligiga putur yetishi mumkin.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda mehnat va ish haqi bo'yicha iqtisodiy ekspertiza faoliyati bo'yicha yagona metodik yondashuv va raqamli audit vositalari joriy etilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqotda aynan sud-buxgalteriya ekspertizasining tashkiliy-uslubiy mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati ilmiy asosda yoritiladi.

Mehnat haqining miqdori ish beruvchi va xodimning o'zaro kelishuvi bo'yicha belgilanadi. Mehnat haqi xodimning ishlagan davri va bajargan ishi uchun beriladi. Mehnatga haq to'lash qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdoridan oz bo'lishi mumkin emas va uning eng ko'p miqdori biron bir tarzda cheklanmaydi. Mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar jamoa shartnomalarida, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa lokal hujjatlarda belgilanadi. Mehnatga haq, qoida tariqasida, pul shaklida to'lanadi. Xodimlarga ish haqi ular ishlayotgan joyda to'lanadi. Ish haqini taqiqlangan shakllarda to'laganlik uchun mansabdor shaxslarga ma'muriy jarima belgilangan. Mehnatga haq to'lash muddatlari har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Qoida tariqasida har oyning 15 sanasida bo'nak to'lovi, keyingi oyning 5 sanasigacha oylik maosh beriladi. Mehnatga haq to'lash shartlari xodimning roziligi bilan yoki rozilgisiz o'zgartirilishi mumkin. Mehnatga haq to'lashning shartlarini xodim uchun noqulay tomonga o'zgartirishga uning roziligi bilan amalga oshiriladi. Quyidagi hollarda xodimning rozilgisiz mehnatga haq to'lash shartlari o'zgartirilishi mumkin:

- texnologiyada, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishi natijasida avvalgi shartlarini saqlab qolish mumkin bo'lmasa;
- qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda yo'l qo'yilishi mumkin.

Bo'lajak o'zgartirish haqida xodim kamida 2 oy oldin ogohlantiriladi. Xodimning mehnat haqidan ushlab qolish uning yozma roziligi bilan yoki sudning qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin.

Xodimning rozilgisiz mehnat haqidan quyidagi hollarda ushlab qolinishi mumkin.

- belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish uchun;
- sudning qarorlari va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun;
- oldindan berilgan maqsadli pullar bo'yicha hisob-kitob qilish hamda ortiqcha to'langan summani qaytarib olish uchun;
- mehnat ta'ili bo'yicha hisob-kitob qilish uchun;
- xodim tomonidan ish beruvchiga etkazilgan zararni qoplash uchun;
- intizomiy jazo tariqasida tayinlangan jarimani undirish uchun.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotga barham berish, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda sud-buxgalteriya ekspertizasini yuqori sifatli va qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tashkil etish va o'tkazish, ilmiy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "islohotlarimizga jiddiy to'sqinlik qilayotgan "yashirin iqtisodiyot"ga barham berilmas ekan, sog'lom raqobat ham, qulay investisiya muhiti ham shakllanmaydi"¹.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sud-buxgalteriya ekspertisasi sohasidagi mavjud adabiyotlar tahlilida aniqlanishicha, mehnatga haq to'lash bilan bog'liq ekspert tahlillari ko'pincha an'anaviy buxgalteriya hisoboti asosida olib borilmoqda. Mahalliy olimlardan G'. Karimov (2022), R. Mirzayev (2021) va T. Xalilov (2020)larning izlanishlari bu sohada mavjud bo'lgan muammolar, xususan, ish haqi shakllanishi va unga doir hisobotlarning noto'g'ri yuritilishi yuzasidan muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagilardan iborat:

- Deskriptiv tahlil – mavjud amaliy holatlarni statistik jihatdan ifodalash;
- Komparativ tahlil – Rossiya, Qozog'iston va Latviya sud-buxgalteriya ekspertisasi metodikalari bilan solishtirish;
- Iqtisodiy-huquqiy risklarni baholash modeli – noto'g'ri hisoblangan ish haqi va uning huquqiy oqibatlar;
- SWOT-tahlil – O'zbekiston amaliyotidagi kuchli va zaif tomonlar.

Statistik manbalarga ko'ra, 2023-yil yakunida ish beruvchilar tomonidan noqonuniy ravishda 117 mlrd so'mga yaqin ish haqi to'lanmagan (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi). Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 38 foizga yuqori.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлиси Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>

So'nggi yillarda sud-buxgalteriya ekspertizasini rivojlantirishga xorijiy hamda MDH mamlakatlarining olimlaridan Sh.I.Alibekov, G.A.Atanesyai, I.A.Baxtin, V.I.Boboshko, S.P.Golubyatnikov, I.V.Dolmatova, E.S.Dubonosov, O.A.Duman, S.A.Zvyagin, J.A.Kevorkova, E.P.Nelezina, A.R.Romashov, E.R.Rossiyskaya, A.A.Savin, A.A.Tolkachenko, G.R. Xamidullina va boshqalar sezilarli ulush qo'shmoqdalar.

Sud-buxgalteriya ekspertizasi aksariyat hollarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining sud-iqtisodiy ekspertizasi bo'limi tarkibida o'tkazib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, ushbu markaz qoshida sud-iqtisodiy ekspertizasi boshqarmasi va uning tarkibida sud-buxgalteriya ekspertizasi va soliq ekspertizasi bo'limlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sud-buxgalteriya ekspertizasini raqamlashtirish va zamonaviy aktlardan foydalanish sharoitida o'tkazilayotgan ekspertizalar va ular natijalarining maxfiyligini ta'minlash ekspertlarning xulosalari va ekspertiza o'tkazish xonalariga begona jismoniy shaxslarning kirishi ta'qiqlanishini nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda ekspertiza apparaturalari ekspertlarning avtomatlashtirilgan ish o'rinlari nafaqat eksperimental ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish va tahliliy hisob-kitoblarni amalga oshirish, balki ma'lumotlar bazasiga ulanish hamda ekspertiza xulosalarining matnlarini tayyorlash imkoniyatlariga ham ega.

NATIJALAR

Tahlillar quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Ekspertiza metodikasi zaifligi – mehnatga haq to'lash bilan bog'liq hujjatlar bo'yicha yagona elektron platforma mavjud emas, aksariyat ekspertiza ishlari qo'lda yuritilmoqda.
2. Vaqt jihatidan cho'zilish – birgina ish haqi bilan bog'liq sud-buxgalteriya ekspertizasi o'rtacha 23 kun davom etadi, bu esa sud qarorlarini kechiktiradi.
3. Huquqiy nomuvofiqlik – Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun, Mehnat kodeksi va boshqa normativ hujjatlar o'rtasida tushunmovchiliklar mavjud.

Yuqoridagi muammolar ekspert xulosalarining aniqligi va sud qarorlarining asoslilikiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli ekspertiza tizimi joriy etilsa, bu ishlarning 30–40% tezroq yakunlanishini ta'minlashi mumkin.

MUHOKAMA

Sud-buxgalteriya ekspertizasining mehnatga haq to'lash bo'yicha operatsiyalarni tahlil qilishdagi roli nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muvozanatni saqlashda ham muhim. Shu jihatdan, bu faoliyatni takomillashtirish uchun quyidagilar muhim:

- Raqamli audit tizimlarini joriy qilish – "ERP-buxgalteriya platformasi" asosida ma'lumotlar almashinuvi;
- Ekspertlar malakasini oshirish – sud ekspertizasi bo'yicha maxsus litsenziyalash tizimi;
- Yagona elektron arxiv – ish haqi va mehnat hujjatlarining raqamli shaklda saqlanishi.

Xalqaro tajribada (masalan, Estoniya) buxgalteriya ekspertizasi sun'iy intellekt yordamida raqamli hujjatlarni tahlil qilish orqali 70%gacha avtomatlashtirilgan.

XULOSA

Mehnat va ish haqi bo'yicha sud-buxgalteriya ekspertizasining zamonaviy usullar bilan ta'minlanishi huquqiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

- Sud ekspertiza jarayonlarini raqamlashtirish zarurati dolzarb;
- Ish haqi operatsiyalarining normativ-huquqiy asoslari yagona metodika asosida shakllantirilishi lozim;
- 2026-yilgacha sud-buxgalteriya ekspertizasining raqamli bazaga o'tishi o'rtacha 40% ish yukini kamaytirishi prognoz qilinmoqda.

Sud-buxgalteriya ekspertizasi iqtisodiy ekspertizaning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, u korxona (tashkilot), xo'jaliklarning buxgalteriya hujjatlaridagi hisob-kitob jarayonlarini (operatsiyalarini) tahlil qilinishi, davlat, jamoa mulki talon-taroj qilinganlik va boshqa xo'jalik, mansab jinoyatlarini ochish kabi holatlarga ehtiyoj tug'ilganda o'tkaziladi.

Sud-buxgalteriya ekspertizasi ham boshqa ekspertiza turlari kabi o'z predmeti va tadqiqot ob'ektlariga egadir.

Pul mablag'lari, tovar moddiy zaxiralarni haqiqatda naqd bor-yo'qligini, buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini buzilish holatlarini aniqlash yuzasidan buxgalteriya hisobi hujjatlarining tadqiq etish sud-buxgalteriya ekspertizasining predmeti hisoblanadi.

Sud-buxgalteriya ekspertizasining ob'ektlari bo'lib, moddiy boyliklarni kirim-chiqim buxgalteriya hujjatlari, ro'yxatdan o'tkazish (inventarizatsiya)

dalolatnomalari va yig'ma hisob hujjatlari xizmat qiladi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

– dastlabki hujjatlar (talabnomalar, moddiy boyliklarni berish xaqidagi naryadlar, bank topshiriqnomalari, kirim, chiqim va kassa orderlari, mahsulotni olib chiqib ketish uchun berilgan ruxsatnomalar, transport hujjatlari, tovarni ro'yxatdan chiqarish dalolatnomalari, tovarlarni qayta baholash, ta'mirlash ob'ektlarining hisob-kitobini olib borish dalolatnomalari, to'lov qaydnomalari, topshiriqnomalari, kvitansiyalari va boshqalar);

– jamlash hujjatlari (hisob registrlari va ularga mansub bulgan jurnallar, aylanma qaydnomalar, hisobga olish varaqalari, bosh kitoblar, balans hisobotlari, mol-mulkni ruyxatdan o'tkazish dalolatnomalari, tovar-pul mablag'lari mavjudligi haqidagi ruyxat qaydnomalari, solishtirish qaydnomalari guruhlantirish qaydnomalari, jamlash va guruhlantirish jadvallari, shaxsiy hisoblar, order va boshqalar);

– avtomatlashtirilgan hisobot ma'lumotlari (magnitli axborot yig'uvchi disk va tasmalar, mashinogramma, tabulyagrammalar, mexanizatsiyalashgan hisobga hujjatlarni topshirish va qabul qilish haqidagi jurnallar, nazorat raqamlar jurnallari va boshqalar).

Bundan tashqari, sud-buxgalteriya ekspertizasi ob'ektlari qatoriga taftish va tekshiruv dalolatnomalari (tekshiruv uslubi asoslanganligi haqida masala qo'yilgan taqdirda), moddiy javobgarlik yuklatilgan shaxslarning tushuntirish xatlari, yuqori turuvchi idoralarning qarorlari, qimmatbaho boyliklar bilan hapakat qilinganligi haqida ma'lumotnomalar, bildirish xatlari, ba'zi boshqa ekspertizalarning (tovarshunoslik, qurilish, texnologik, xatshunoslik ekspertizalari) xulosalari, ekspertiza qilinayotgan ob'ektga taalluqli bo'lgan ayblanuvchilarning ko'rsatmalari, tintuv va olib qo'yish bayonnomalari, norasmiy olib borilgan hisob hujjatlari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistika byulleteni (2024).
2. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hisobotlari (2023).
3. Karimov G'. "Sud-buxgalteriya ekspertizasi nazariyasi", Toshkent moliya instituti, 2022.
4. OECD (2022). "Efficient Labour Dispute Resolutions".
5. Estoniya E-adliya kengashi (2023). "AI in Financial Expertises".
6. Latviya Buxgalteriya Palatasi (2021). "Audit Methods in Labour Cases".

7. 1. Ўзбекистон Республикаси Қонуни «Суд экспертизаси тўғрисида», 2010 йил 1 июнь, № ЎРҚ, - 249 <https://lex.uz/docs/1633102>.
8. 2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17.01.2019 й. 4125-сонли Қарори «Суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» <https://lex.uz/docs/4172023#4173229>.
9. 3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 5.07.2021 й. 6256-сонли Фармони «Ўзбекистон Республикасида суд-экспертлик тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» <https://lex.uz/docs/5491507>.
10. 4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 24.03.2020 й. 180-сон Қарори «Нодавлат суд-экспертиза ташкилотлари фаолиятини ташкил этиш бўйича низомларни тасдиқлаш тўғрисида», www.lex.uz.
11. 5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.
12. 6. Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси: <https://lex.uz/docs/3523891>
13. 7. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодекси: <https://lex.uz/acts/186105>
14. 8. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси <https://lex.uz/docs/111460>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

